Bugungi O‘ZBEKISTON

2026-yil 25-avgust,
16-son (90)
E-mail: bugungiuzbekistan@gmail.com

Ҳар бир давлат хизматчиси ҳар куни ўзининг меҳнати билан эгаллаб турган лавозимига лойиқлигини исботлаши керак.

ШҲТнинг 25 ЙИЛЛИГИ: МИНТАҚАВИЙ МУЛОҚОТДАН СТРАТЕГИК ҲАМКОРЛИК САРИ

XXI аср бошларида Евроосиё ҳудудида сиёсий ва иқтисодий жараёнларнинг жадаллашуви, шунингдек, минтақавий хавфсизликка доир янги таҳдид ва чақириқларнинг пайдо бўлиши давлатлар ўртасида кўп томонлама ҳамкорликни янада кучайтириш заруратини юзага келтирди. Ана шундай шароитда 2001 йил 15 июнда Хитой, Россия, Қозоғистон, Қирғизистон, Тожикистон ва Ўзбекистон иштирокида Шанхай Ҳамкорлик Ташкилоти (ШҲТ) ташкил этилди. Шу билан “Шанхай бешлиги” доирасида илгари шаклланган ўзаро ишонч ва хавфсизлик соҳасидаги ҳамкорлик механизмлари янги институционал босқичга олиб чиқилди.

ШҲТ фаолиятининг дастлабки босқичида асосий эътибор аъзо давлатлар ўртасида ўзаро ишончни мустаҳкамлаш, чегара ҳудудларида тинчлик ва барқарорликни таъминлаш, шунингдек, терроризм, сепаратизм ва экстремизм каби трансмиллий таҳдидларга қарши биргаликда чора кўришга қаратилди. Вақт ўтиши билан ташкилотнинг фаолият доираси кенгайиб, хавфсизлик масалалари билан бир қаторда сиёсий, иқтисодий, транспорт, энергетика, маданий-гуманитар ва бошқа йўналишлардаги ҳамкорликни ҳам қамраб олди. Бугунги кунда ШҲТнинг чорак асрлик тараққиёт тажрибаси уни Евроосиё маконида кўп томонлама ҳамкорликнинг муҳим механизмларидан бири сифатида намоён этмоқда.

Бугунги глобал ноаниқликлар шароитида ШҲТни фақат хавфсизлик соҳасидаги ҳамкорлик механизми сифатида баҳолаш етарли эмас. Ташкилот доирасида сиёсий мулоқот, савдо-иқтисодий алоқалар, транспорт ва логистика, энергетика, рақамлаштириш, сунъий интеллект, экология, соғлиқни сақлаш, таълим ва маданият соҳаларида ҳамкорлик йўналишлари шаклланган. 2026 йил июнь ойида Тошкентда ўтказилган ШҲТ Миллий координаторлари кенгаши йиғилишида ҳам сиёсат ва хавфсизлик билан бир қаторда савдо, транспорт-логистика, рақамлаштириш ва сунъий интеллект, энергетика, экология, соғлиқни сақлаш, таълим ва маданият каби йўналишлар муҳокама қилингани ташкилот кун тартибининг комплекс тус олганини кўрсатади.

Шу нуқтаи назардан, ШҲТнинг 25 йиллиги нафақат ташкилотнинг ўтган даврига назар ташлаш, балки унинг келгуси ривожланиш модели ҳақида фикр юритиш учун ҳам муҳим илмий ва сиёсий имкониятдир.

ШҲТнинг шаклланиши ва институционал ривожланиш босқичлари

Шанхай ҳамкорлик ташкилотининг ташкил топиши муайян тарихий ва геосиёсий эҳтиёжларнинг натижаси бўлган эди десак муболаға бўлмайди. Сўнгги йилларда “Шанхай руҳи” асосида шаклланган ҳамкорлик модели муайян давлатларнинг сиёсий тизими, иқтисодий салоҳияти ва ташқи сиёсий манфаатларидаги фарқларга қарамасдан, Евросиё минтақасида ўзаро ишонч ва консенсус асосида умумий манфаатларни илгари суришга йўналтирилди.

Ташкилотнинг 25 йиллик тарихини шартли равишда бир неча босқичга ажратиш мумкин.

Биринчи босқич 2001-2004 йилларни қамраб олади. Таъкидлаш лозимки, бу давр ШҲТнинг институционал пойдевори шаклланган муҳим босқич сифатида намоён бўлади. Ташкилотнинг мақсад ва вазифалари аниқлаштирилиб, унинг фаолиятини тартибга солувчи ҳуқуқий асослар ва ташкилий механизмлар изчил равишда шакллантирилди. Хусусан, аъзо давлатлар ўртасида ўзаро ишонч ва яхши қўшничилик муносабатларини мустаҳкамлаш, минтақавий хавфсизликни таъминлаш ҳамда умумий таҳдидларга қарши биргаликда ҳаракат қилиш масалаларига алоҳида эътибор қаратилди.

Мазкур даврда хавфсизлик масалалари, айниқса, терроризм, сепаратизм ва экстремизмга қарши кураш ШҲТ фаолиятининг устувор йўналиши бўлиб қолди. Шу мақсадда аъзо давлатларнинг ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ва махсус хизматлари ўртасида амалий ҳамкорликни йўлга қўйиш, ахборот алмашинувини кучайтириш ва қўшма чоратадбирларни ташкил этишга асос солинди. 2002 йилда ШҲТ Хартиясининг қабул қилиниши ташкилотнинг ҳуқуқий мақомини мустаҳкамлаб, унинг асосий тамойиллари ва фаолият йўналишларини белгилаб берди.

Шунингдек, 2004 йилда Тошкент шаҳрида ШҲТнинг Минтақавий аксилтеррор тузилмаси (МАТТ)нинг иш бошлаши ташкилотнинг хавфсизлик соҳасидаги амалий салоҳиятини янада оширди. Бу жараён ШҲТнинг дастлабки босқичдаёқ нафақат сиёсий мулоқот майдони, балки минтақавий хавфсизликни таъминлашга қаратилган амалий ҳамкорлик механизми сифатида шаклланганини кўрсатади.

2004-2015 йилларни шартли равишда иккинчи босқич сифатида кўрсатиш мумкин. Бу давр ШҲТнинг институционал салоҳияти мустаҳкамланиши ва ташкилот фаолиятининг янги йўналишлар билан бойиши билан характерланади. Хавфсизлик соҳасидаги ҳамкорлик сақланиб қолган ҳолда, иқтисодий, транспорт-коммуникация, энергетика ва гуманитар соҳалардаги муносабатларга ҳам алоҳида эътибор қаратила бошлади. Аъзо давлатлар ўртасида савдо-иқтисодий алоқаларни кенгайтириш, транспорт йўлакларини ривожлантириш ва минтақавий инфратузилмавий лойиҳаларни амалга ошириш масалалари ташкилот кун тартибидан тобора кўпроқ ўрин эгаллади.

Ушбу даврда ШҲТнинг ташқи алоқалари ҳам фаоллашди. Ташкилот халқаро ва минтақавий масалалар бўйича ўз позициясини шакллантириб, бошқа давлатлар ва халқаро ташкилотлар билан мулоқотни ривожлантира бошлади. 2010 йилларга келиб ШҲТ Евроосиё маконида хавфсизлик билан бир қаторда иқтисодий ва сиёсий ҳамкорликни ривожлантиришга қаратилган муҳим кўп томонлама платформа сифатида ўз мавқеини мустаҳкамлади. Натижада 2004-2015 йиллар ташкилотнинг дастлабки хавфсизлик йўналишидан кенг қамровли минтақавий ҳамкорлик моделига босқичма-босқич ўтиш даври бўлди.

Бу даврда ШҲТнинг институционал салоҳияти мустаҳкамланиб, хавфсизлик соҳасидаги ҳамкорлик билан бир қаторда иқтисодий ва гуманитар йўналишлар ривожлана бошлади. Ташкилотнинг халқаро муносабатлардаги субъективлиги ва сиёсий аҳамияти ҳам ортиб борди.

Учинчи босқич сифатида 2015-2021 йилларни кўрсатиш мумкин. Бу босқич ШҲТнинг халқаро миқёсдаги таъсири ва сиёсий салоҳияти сезиларли даражада ошган давр сифатида баҳоланади. Бу босқичда ташкилот нафақат Марказий Осиё, балки Жанубий Осиё ва кенгроқ Евроосиё ҳудудидаги жараёнларга таъсир кўрсатувчи кўп томонлама мулоқот майдонига айланди. Айниқса, аъзо давлатлар таркибининг кенгайиши ташкилот кун тартибига янги сиёсий ва иқтисодий масалаларни олиб кирди.

Мазкур даврда ШҲТ доирасида хавфсизлик масалалари билан бир қаторда савдо-иқтисодий алоқалар, транспорт ва логистика, энергетика, рақамли технологиялар ҳамда гуманитар ҳамкорликни ривожлантиришга эътибор кучайди. Аъзо давлатлар ўртасидаги манфаатлар хилма-хиллиги ташкилот доирасида консенсус асосида қарор қабул қилиш, ўзаро манфаатларни мувофиқлаштириш ва амалий ҳамкорликнинг янги шаклларини излашни талаб қилди.

Шунингдек, ушбу босқичда ШҲТнинг халқаро ташкилотлар ва бошқа минтақавий тузилмалар билан алоқалари кенгайди. Ташкилотнинг халқаро кун тартибидаги долзарб масалалар бўйича позицияси тобора аниқроқ намоён бўлиб, унинг Евроосиёдаги кўп томонлама дипломатик мулоқотдаги ўрни мустаҳкамланди. Шу маънода, 2015-2021 йиллар ШҲТнинг минтақавий хавфсизликка йўналтирилган тузилмадан кенг қамровли сиёсий ва иқтисодий ҳамкорлик платформасига айланиш жараёнининг муҳим босқичи бўлди.



Тўртинчи босқич 2021-2026 йилларга тўғри келмоқда. Бу босқич ШҲТ тараққиётида янги геосиёсий воқеликлар ва жаҳон иқтисодиётидаги ўзгаришлар шароитида ташкилот фаолиятининг мазмунан бойиши билан ажралиб туради. Бу даврда глобал ва минтақавий жараёнларнинг ўзаро боғлиқлиги кучайиб, иқтисодий хавфсизлик, логистика ва стратегик ресурслар масалалари ташкилот кун тартибида янада муҳим ўрин эгаллади. Шу муносабат билан транспорт коридорларини ривожлантириш, савдо йўлларини диверсификация қилиш ва давлатлар ўртасидаги иқтисодий боғлиқликни кучайтиришга алоҳида эътибор қаратилди.

Мазкур босқичда рақамли трансформация ҳам ШҲТ ҳамкорлигининг истиқболли йўналишларидан бирига айланди. Рақамли иқтисодиёт, замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ва сунъий интеллект соҳаларида тажриба алмашиш, технологик ҳамкорликни ривожлантириш ва рақамли хавфсизликни таъминлаш масалалари тобора долзарб аҳамият касб этди. Шу билан бирга, иқлим ўзгариши ва экологик муаммоларнинг трансчегаравий хусусияти экологик барқарорлик, “яшил” технологиялар ва ресурслардан оқилона фойдаланиш бўйича ҳамкорликни кенгайтиришни тақозо этди.

2021-2026 йиллар даврида гуманитар ҳамкорликка ҳам янги мазмун кириб, таълим, илм-фан, маданият, соғлиқни сақлаш ва ёшлар алмашинуви каби йўналишлар орқали халқлар ўртасидаги ўзаро англашувни мустаҳкамлашга эътибор кучайди. Натижада ШҲТнинг фаолият доираси хавфсизлик ва сиёсий мулоқот билан чекланиб қолмасдан, иқтисодий, технологик, экологик ва инсонпарварлик йўналишларини қамраб олган комплекс ҳамкорлик тизими сифатида янада ривожланди.

Шу тариқа ШҲТнинг институционал эволюцияси хавфсизликка йўналтирилган дастлабки форматдан комплекс кўп томонлама ҳамкорлик платформасига ўтиш жараёни сифатида намоён бўлмоқда.

Шу ўринда, Ўзбекистоннинг ШҲТдаги ўрнини ташкилотнинг бутун тарихи давомида алоҳида баҳолаш мумкин. Чунки Ўзбекистон ШҲТ таъсисчиларидан бири бўлиб, унинг шаклланиш жараёнидаёқ ташкилот олдида турган асосий масалалар — минтақавий хавфсизлик, тинчлик ва барқарорликни таъминлаш каби йўналишларга катта аҳамият қаратган.

Ташкилот фаолиятининг дастлабки босқичида Ўзбекистон учун албатта хавфсизлик масалалари устувор аҳамият касб этган эди. Хусусан, терроризм, экстремизм ва сепаратизмга қарши курашиш, трансмиллий жиноятчиликнинг олдини олиш ҳамда Марказий Осиёда барқарорликни таъминлаш масалалари ШҲТ доирасидаги ҳамкорликнинг муҳим йўналишларидан бири бўлган эди. Бу ўша пайтдаги Марказий Осиё давлатлари ичидаги сиёсий-ижтимоий ҳолатлар билан боғлиқ эди албатта. 2004 йилда Тошкент шаҳрида ШҲТнинг Минтақавий аксилтеррор тузилмаси фаолиятининг йўлга қўйилиши ҳам Ўзбекистоннинг ташкилотдаги ўрнини янада мустаҳкамлади. Бу ҳолат мамлакатимизнинг минтақавий хавфсизлик масалаларидаги аҳамиятини кўрсатиб берди.

Кейинги босқичларда ШҲТ фаолияти фақат хавфсизлик масалалари билан чекланиб қолмай, иқтисодий, транспорт, энергетика ва гуманитар соҳаларни ҳам қамраб олди. Бу жараёнда Ўзбекистон ҳам ўз манфаатларидан келиб чиққан ҳолда ташкилот доирасидаги ҳамкорликни кенгайтиришга ҳаракат қилиб келмоқда. Бунинг амалий мисоли сифатида 2025 йилда Тяньцзинь шаҳрида ўтказилган ШҲТ саммитини келтириш мумкин. Унда Ўзбекистон транспорт боғлиқлигини кучайтириш, савдо йўлакларини ривожлантириш ва минтақавий иқтисодий ҳамкорликни кенгайтириш масалаларини илгари сурди. Шунингдек, Хитой—Қирғизистон—Ўзбекистон темир йўли лойиҳасининг амалга оширилаётгани Ўзбекистоннинг ШҲТ маконидаги транспорт-транзит аҳамиятини янада оширмоқда. Шу жиҳатдан, Ўзбекистоннинг географик жойлашуви мамлакатни Шарқ ва Ғарб, Марказий ва Жанубий Осиёни боғловчи муҳим транспорт бўғинига айлантириш учун катта имконият яратади.

Умуман олганда, Ўзбекистоннинг ШҲТдаги ўрнини фақат ташкилотга аъзо давлат сифатидагина эмас, балки унинг шаклланишига ҳисса қўшган ва Марказий Осиёдаги жараёнларга таъсир кўрсата оладиган муҳим иштирокчи сифатида баҳолаш мумкин. Ўзбекистоннинг географик жойлашуви, иқтисодий салоҳияти ва минтақадаги ўрни ШҲТ доирасидаги ҳамкорликнинг келгуси ривожида ҳам мамлакатимиз аҳамиятини сақлаб қолади.

“Шанхай руҳи” — ШҲТ ҳамкорлик моделининг асоси

ШҲТнинг бошқа минтақавий ташкилотлардан фарқ қилувчи муҳим хусусиятларидан бири — “Шанхай руҳи” деб аталувчи ҳамкорлик тамойилларидир. У ўзаро ишонч, ўзаро манфаат, тенглик, маслаҳатлашув, маданий хилма-хилликни ҳурмат қилиш ва умумий тараққиётга интилиш каби тамойилларга асосланади.

Мазкур ёндашувни ШҲТнинг институционал барқарорлигини таъминловчи муҳим омиллардан бири сифатида баҳолаш мумкин. Чунки ташкилот таркибида сиёсий манфаатлари, иқтисодий моделлари ва ташқи сиёсий устуворликлари бир-биридан фарқ қилувчи давлатлар иштирок этади. Шундай шароитда консенсус ва маслаҳатлашув механизми кескин қарама-қаршиликларни юмшатиш, умумий манфаатлар мавжуд бўлган соҳаларни аниқлаш ва амалий ҳамкорликни давом эттириш имконини беради.

Шу маънода “Шанхай руҳи”ни нафақат декларатив сиёсий шиор, балки ШҲТнинг институционал фаолиятини тушунтирувчи концептуал асос сифатида кўриб чиқиш мумкин.

“Шанхай руҳи” тушунчаси ШҲТ фаолиятининг асосий тамойилларидан бири бўлиб, унинг замирида ўзаро ишонч, тенглик, ўзаро манфаат, маслаҳатлашув ва турли цивилизациялар ўртасидаги ҳурмат каби қадриятлар мужассам. Бу тамойилларнинг бугунги мазмун-моҳиятини Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ШҲТ доирасида илгари сураётган ташаббуслари орқали яққол кўриш мумкин.

Айниқса, 2022 йилда Самарқандда бўлиб ўтган ШҲТ саммитида Президентимиз “Шанхай руҳи”ни бирдамлик, ўзаро қўллаб-қувватлаш ва шерикликни мустаҳкамлашнинг муҳим асоси сифатида таъкидлаган эдилар. Президентимизнинг фикрича, айнан шу тамойилларга таянган ҳолда ШҲТ маконида тинчлик, барқарорлик ва фаровонликни таъминлаш мумкин.

Шу билан бирга, Президентимиз “Шанхай руҳи”ни Самарқанднинг тарихий ва маънавий муҳити билан уйғунлаштириб, “Самарқанд руҳи” ғоясини илгари сурдилар. Бунинг сабаби, Самарқанд асрлар давомида турли халқлар ва цивилизациялар ўртасида мулоқот, савдо ва маданий алмашинув маркази бўлиб келган. Шу нуқтаи назардан, “Самарқанд руҳи”ни “Шанхай руҳи”нинг мантиқий давоми ва уни янги мазмун билан бойитувчи ғоя сифатида кўриш мумкин.

Бу ёндашувлар Ўзбекистоннинг ШҲТдаги ўрнини ҳам яққол намоён этади. Яъни Ўзбекистон ташкилот фаолиятида фақат иштирокчи сифатида эмас, балки ўзаро ишонч, очиқ мулоқот, яхши қўшничилик ва амалий ҳамкорликни кучайтиришга қаратилган ташаббусларни илгари сураётган давлат сифатида намоён бўлмоқда. Шу маънода, “Шанхай руҳи” ва “Самарқанд руҳи” ўртасидаги уйғунлик Ўзбекистоннинг ШҲТ доирасидаги ўзига хос дипломатик ёндашувини ифодалайди.

Хавфсизлик соҳасидаги ҳамкорликдан комплекс хавфсизлик концепциясигача

ШҲТ ташкил топган даврда минтақавий хавфсизлик масалалари ташкилот фаолиятининг асосий йўналиши бўлган эди. Бугун ҳам хавфсизлик ташкилотнинг муҳим устувор йўналишларидан бири бўлиб қолмоқда.

ШҲТ доирасида хавфсизлик соҳасидаги ҳамкорлик терроризм, сепаратизм ва экстремизмга қарши кураш, трансмиллий жиноятчилик, ноқонуний қурол-яроғ савдоси, ноқонуний миграция ва бошқа таҳдидларга қарши чораларни қамраб олади. Аъзо давлатлар хавфсизлик кенгашлари котибларининг учрашувлари мазкур соҳадаги мувофиқлаштириш ва маслаҳатлашув механизмларидан бири ҳисобланади.

Бироқ XXI асрда хавфсизлик тушунчасининг ўзи ҳам кенгайиб бормоқда. Энергетика ва озиқ-овқат хавфсизлиги, сув ресурслари, иқлим ўзгариши, киберхавфсизлик, пандемиялар ва сунъий интеллект технологиялари билан боғлиқ хавфлар анъанавий хавфсизлик тушунчасини тўлдирмоқда.

Шу сабабли, ШҲТнинг келгуси ривожида комплекс хавфсизлик ёндашувини кучайтириш муҳим аҳамият касб этади. Бу эса хавфсизлик соҳасидаги ҳамкорликни иқтисодий, экологик, технологик ва ижтимоий барқарорлик билан узвий боғлашни талаб этади.

ШҲТнинг иқтисодий ва транспорт-логистика салоҳияти

ШҲТнинг 25 йиллик тараққиётида иқтисодий ҳамкорлик масалалари тобора муҳим ўрин эгалламоқда. Ташкилотга кирувчи давлатлар Евроосиёнинг муҳим географик ҳудудларини қамраб олгани сабабли транспорт ва логистика соҳасида катта имкониятлар мавжуд.

Марказий Осиё давлатлари учун ШҲТ доирасидаги транспорт ҳамкорлиги алоҳида аҳамиятга эга. Чунки минтақа Европа ва Осиё ўртасидаги транспорт йўлакларини боғловчи муҳим географик ҳудуд ҳисобланади.

Шу нуқтаи назардан ШҲТ доирасида транспорт коридорларини ривожлантиришни фақат иқтисодий лойиҳа сифатида эмас, балки минтақавий ўзаро боғлиқлик ва барқарорликни таъминлаш механизми сифатида ҳам баҳолаш мумкин.

2025 йилда Тяньцзинь саммити доирасида иқтисодий ҳамкорликни чуқурлаштириш, инвестиция механизмларини ривожлантириш ва энергетика соҳасида ҳамкорликни кучайтириш бўйича янги таклифлар илгари сурилди. Бу ШҲТнинг иқтисодий кун тартиби хавфсизлик масалалари билан бир қаторда стратегик аҳамият касб этаётганини кўрсатади.

Ўзбекистоннинг ШҲТдаги ўрни

Ўзбекистон ШҲТнинг асосчи давлатларидан бири сифатида ташкилотнинг шаклланиши ва ривожланишида алоҳида ўрин тутади. Мамлакатнинг ШҲТ доирасидаги сиёсати, аввало, минтақавий тинчлик ва барқарорликни таъминлаш, Марказий Осиёда ўзаро ишончни мустаҳкамлаш, иқтисодий ва транспорт боғлиқлигини ривожлантириш ҳамда прагматик кўп томонлама ҳамкорликни кенгайтиришга қаратилган.

Самарқандда 2022 йилда ўтказилган ШҲТ саммити ташкилот тараққиётида муҳим босқичлардан бири бўлди. Ушбу саммит ШҲТнинг кенгайиши ва унинг янги ҳамкорлик кун тартибини шакллантириш нуқтаи назаридан муҳим аҳамият касб этди.

Ўзбекистоннинг ёндашувида Марказий Осиё хавфсизлиги, Афғонистонда тинчлик ва барқарорликни таъминлаш, транспорт коммуникацияларини ривожлантириш ва иқтисодий ўзаро боғлиқликни кучайтириш масалалари муҳим ўрин тутади.

Бу жиҳатдан Ўзбекистоннинг ШҲТдаги фаолиятини ташкилотнинг “хавфсизлик — тараққиёт — ўзаро боғлиқлик” учлиги асосидаги ривожланиш тенденцияси билан уйғунлаштириш мумкин.

ШҲТнинг янги стратегик кун тартиби

ШҲТнинг 25 йиллиги ташкилот олдига янги стратегик вазифаларни қўймоқда. Энг аввало, ташкилот ўзининг кенгайган географик ва сиёсий таркиби шароитида қарор қабул қилиш самарадорлигини таъминлаши зарур.

Иккинчидан, ШҲТ доирасида қабул қилинаётган ҳужжатларни амалий натижаларга айлантириш масаласи долзарб аҳамият касб этади. Яъни ташкилотнинг кейинги босқичи декларациялар эмас, балки аниқ қўшма лойиҳалар, инвестициялар, транспорт йўлаклари, технологик ҳамкорлик ва институционал механизмлар билан белгиланиши лозим.

Учинчидан, рақамли трансформация ва сунъий интеллект соҳалари ШҲТнинг янги ҳамкорлик кун тартибида алоҳида ўрин эгаллаши мумкин. 2026 йилда Тошкентда ўтказилган Миллий координаторлар кенгаши йиғилишида рақамлаштириш ва сунъий интеллект масалаларининг алоҳида йўналиш сифатида муҳокама қилиниши бу тенденцияни тасдиқлайди.

Тўртинчидан, экологик ва сув хавфсизлиги масалалари келгусида янада муҳимлашади. Иқлим ўзгариши, сув ресурсларининг чекланганлиги ва трансчегаравий экологик муаммолар ШҲТ давлатлари ўртасида янги ҳамкорлик механизмларини шакллантиришни талаб қилади.

ШҲТнинг 25 йиллиги: келажакка назар

ШҲТнинг 25 йиллик тарихи шуни кўрсатадики, ташкилот ўзининг дастлабки вазифаларидан ташқари янги йўналишларни ўзлаштириш қобилиятига эга бўлди. 2001 йилда асосий эътибор хавфсизлик ва ўзаро ишонч масалаларига қаратилган бўлса, 2026 йилга келиб ШҲТнинг кун тартиби сиёсат, хавфсизлик, иқтисодиёт, транспорт, энергетика, рақамлаштириш, экология ва гуманитар ҳамкорликни қамраб олган комплекс тизимга айланди. Бироқ ташкилотнинг келгуси муваффақияти унинг фаолият йўналишларининг кўпайишида эмас, балки уларни амалий натижаларга айлантириш қобилиятида намоён бўлади.

Шу нуқтаи назардан ШҲТнинг кейинги босқичи учун қуйидаги устувор йўналишларни белгилаш мумкин:

· минтақавий хавфсизлик соҳасида ахборот алмашинуви ва профилактик механизмларни кучайтириш;

· транспорт ва логистика коридорларининг ўзаро боғлиқлигини ошириш;

· савдо ва инвестиция жараёнларини соддалаштириш;

· энергетика хавфсизлиги ва «яшил» иқтисодиёт соҳасида ҳамкорликни кенгайтириш;

· сув ва экологик хавфсизлик бўйича қўшма механизмларни шакллантириш;

· рақамли иқтисодиёт ва сунъий интеллект соҳасида умумий лойиҳаларни ривожлантириш;

· таълим, илмий тадқиқот ва гуманитар алмашинувларни кенгайтириш;

· ШҲТнинг институционал механизмлари самарадорлигини ошириш.

ШҲТнинг 25 йиллик эволюциясидаги энг муҳим натижалардан бири — турли сиёсий ва иқтисодий манфаатларга эга давлатларни ягона мулоқот майдонида ушлаб туриш имконини берувчи институционал механизмларнинг шаклланганидир. “Шанхай руҳи” асосидаги ўзаро ишонч, тенглик, маслаҳатлашув ва умумий тараққиёт тамойиллари ташкилотнинг ўзига хос ҳамкорлик моделини белгилаб берди.

Бироқ янги геосиёсий ва геоиқтисодий шароит ШҲТдан сифат жиҳатидан янги босқичга ўтишни талаб этмоқда. Бу босқичда ташкилотнинг вазифаси фақат мулоқот майдони бўлиб қолиш эмас, балки аъзо давлатларнинг умумий манфаатларини амалий лойиҳалар ва самарали институционал механизмларга айлантиришдан иборат бўлиши лозим. Шу маънода ШҲТнинг 25 йиллиги — фақат ўтган давр сарҳисоби эмас. Бу ташкилотнинг минтақавий мулоқот платформасидан стратегик ҳамкорлик механизмига ўтиш жараёнини чуқурлаштириш учун янги имкониятлар давридир.

Келгуси йилларда ШҲТнинг муваффақияти унинг қанчалик кўп давлатларни бирлаштиришида эмас, балки улар ўртасида қанчалик самарали ва узоқ муддатли ҳамкорлик механизмларини ярата олиши билан белгиланади. Агар “Шанхай руҳи” амалий ҳамкорликнинг янги институтлари билан уйғунлаштирилса, ШҲТ Евроосиё маконида тинчлик, барқарорлик ва умумий тараққиётни таъминлашга қаратилган муҳим стратегик платформа сифатида ўз аҳамиятини янада ошириши мумкин.

Гўзал САЪДИЕВА,
Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат сиёсати ва бошқаруви академияси доценти, сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

Bugungi O‘ZBEKISTON

2026-yil 25-avgust,
16-son (90)
E-mail: bugungiuzbekistan@gmail.com

Инсон қадрини улуғлаш — юртимизда яшаётган ҳар бир одамнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатларини таъминлаш демакдир. Бу борада жамиятимиз асоси бўлган маҳалла ҳал қилувчи ўрин тутади.

“HAYOT AKADEMIYASI”: MUSTAQILLIKNING 35 YILI VA XALQCHIL KADRLAR TAYYORLASHNING YANGI BOSQICHI



Mustaqillikdan — yangi taraqqiyot bosqichiga

Mustaqillik — bu faqat taqvimdagi sana yoki tarixiy voqea emas. U, avvalo, o‘z kelajagimizni o‘zimiz belgilash, inson manfaatini taraqqiyotning bosh mezoniga aylantirish va jamiyat hayotining barcha sohalarini izchil yangilash imkoniyatidir.

Bugun O‘zbekiston o‘z mustaqil taraqqiyotining 35 yillik sarhisobiga yuz tutayotgan bir paytda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida inson, uning huquq va erkinliklari, tinchligi va xavfsizligini ta’minlash masalasi tobora ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa davlat va jamiyat hayotining barcha sohalari qatori, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini ham zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Bunday ulkan vazifalarni amalga oshirish esa zamonaviy bilim, yuksak kasbiy kompetensiya, yangicha fikrlash va eng muhimi, xalq bilan samarali muloqot qila oladigan kadrlarni talab etadi. Shu jihatdan, ichki ishlar organlari uchun yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Ana shu ehtiyoj va talablar IIV Akademiyasi faoliyatida ham o‘zining aniq va amaliy ifodasini topmoqda. Bugun ichki ishlar xodimiga qo‘yilayotgan talablar faqat huquqiy bilim va xizmat vazifalarini bajarish bilan cheklanmaydi. Zamonaviy xodim tahdidlarni oldindan anglay olishi, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishi, murakkab vaziyatlarni tahlil qilishi, tezkor va asosli qaror qabul qilishi, turli ijtimoiy guruhlar bilan samarali muloqot o‘rnatishi zarur. Ayniqsa, fuqaroning muammosini tinglash, uning psixologik holatini to‘g‘ri baholash, nizoli vaziyatlarni muloqot orqali yumshatish va qonuniy yechimga yo‘naltirish bugungi xodimning muhim kasbiy kompetensiyalaridan biriga aylanmoqda.

Shu bois IIV Akademiyasida kadrlar tayyorlash jarayoni ham yangi mazmun bilan boyitilib, bilim berishdan ko‘ra uni real xizmat faoliyatida qo‘llay olishga, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga va xalq bilan ishlashning zamonaviy ko‘nikmalarini rivojlantirishga tobora ko‘proq yo‘naltirilmoqda. Bu esa Akademiyani nafaqat ta’lim beruvchi, balki zamonaviy, xalqchil va professional ichki ishlar xodimini shakllantiruvchi muhim maskan sifatida namoyon etmoqda.Bugun O‘zbekiston o‘z mustaqil taraqqiyotining 35 yillik sarhisobiga yuz tutayotgan bir paytda mamlakat hayotining barcha jabhalarida yuz berayotgan yangilanishlar, avvalo, inson va uning farovonligi, huquq va erkinliklarini ta’minlash, jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlashga qaratilmoqda.

Bunday ulkan vazifalarni amalga oshirish esa, tabiiyki, zamonaviy bilim va yuksak kasbiy kompetensiyaga ega, yangicha fikrlaydigan kadrlarni talab etadi.

Ayniqsa, ichki ishlar organlari faoliyatida bu talab yanada dolzarb. Zero, bugungi xodim nafaqat qonunlarni mukammal bilishi, balki murakkab ijtimoiy vaziyatlarni anglay olishi, fuqarolar bilan samarali



muloqot qilishi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana olishi va eng muhimi, inson taqdiriga daxldor qarorlar uchun mas’uliyatni his qilishi kerak.

Zamon o‘zgarmoqda. Jinoyatchilikning shakl va usullari yangilanmoqda, raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylanmoqda, fuqarolarning davlat organlaridan kutayotgan talabi esa tobora ortib bormoqda. Demak, davlat va jamiyat xavfsizligini ta’minlaydigan xodimni tayyorlash yondashuvlari ham zamon bilan hamnafas ravishda o‘zgarishi tabiiy va zarurdir.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar, ta’lim jarayonining modernizatsiyasi, nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash, dual ta’limni rivojlantirish, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy etish, professor-o‘qituvchilar hamda kursantlar uchun munosib sharoitlar yaratish — mustaqillik yillarida shakllangan yangi davlat boshqaruvi va xalqchil xizmat tamoyillarining ta’lim sohasidagi amaliy ifodasidir.

Chunki bugungi Akademiyada asosiy savol “kursantga qancha bilim berildi?” degan savol bilangina cheklanmaydi. Asosiy masala — “bu bilim xizmat jarayonida qanday natijaga aylanadi, xodim fuqaroga qanday munosabatda bo‘ladi va jamiyat uning faoliyatidan qanday naf ko‘radi?”

Ana shu nuqtadan qaraganda, Akademiyani oddiy ta’lim muassasasi sifatida emas, kasbiy bilim, hayotiy tajriba, ma’naviy-axloqiy fazilat, mas’uliyat va xalq bilan muloqot madaniyati shakllanadigan “Hayot akademiyasi” sifatida ko‘rish mumkin.

Akademiya: nazariya va amaliyot birlashgan maskan

Bugungi kunda ta’limning asosiy mezoni — berilgan bilimning hajmi emas, balki uning amaliyotda qanday natijaga aylanishidir.

Shu nuqtayi nazardan Akademiyada dual ta’lim tizimining keng joriy etilishi kadrlar tayyorlash jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. IIV Akademiyasi tashabbusi bilan Toshkent shahridagi ichki ishlar organlari bilan hamkorlikda tashkil etilgan dual ta’lim doirasida kunduzgi ta’limning 2- va 3-o‘quv kurslarida tahsil olayotgan kursantlar tegishli mutaxassisliklar bo‘yicha amaliyot o‘tab kelayotganligi, ularga tajribali murabbiylar biriktirilib, nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilayotganligi kadrlarning kasbiy tayyorgarligini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, ularning xizmat muhitiga moslashuvini tezlashtirish hamda kelgusidagi xizmat faoliyati uchun zarur kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Dual ta’limning yana bir muhim jihati — uning faqat kasbiy ko‘nikma bilan cheklanib qolmayotganidir. Bugungi kunda kursantlarning jamoat tartibini saqlash, mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, aholi muammolarini o‘rganish hamda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish jarayonlariga bevosita jalb etilayotgani ichki ishlar organlari faoliyatini xalq manfaatlariga yanada yaqinlashtirishga qaratilgan islohotlarning amaliy ifodasidir.

Demak, dual ta’lim — shunchaki “o‘qish bilan amaliyotni birlashtirish” emas. Bu kursantni real xizmat va ijtimoiy muhitga olib kirish, turli toifadagi fuqarolar bilan samarali muloqot qilish, murakkab vaziyatlarda psixologik jihatdan to‘g‘ri yondashuvni tanlash, mustaqil qaror qabul qilish va kasbiy mas’uliyatni his etishga o‘rgatadigan kompleks tayyorgarlik mexanizmidir. Bunday yondashuv jarayonida kursantning nafaqat huquqiy va amaliy bilimlari, balki kommunikativ, psixologik, analitik va ijtimoiy kompetensiyalari ham shakllanadi. Natijada u xizmatga faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki insonlar bilan ishlash, nizoli vaziyatlarni to‘g‘ri boshqarish, vaziyatni baholash va qonuniy hamda maqbul qaror qabul qilishga tayyor professional kadr sifatida kirib boradi. Aynan shu jihati bilan dual ta’lim bugungi ichki ishlar xodimini tayyorlashda “bilimdan — ko‘nikmaga, ko‘nikmadan — kompetensiyaga, kompetensiyadan — professional xizmatga” olib boradigan uzviy ta’lim mexanizmiga aylanmoqda.

“Ta’lim — tadqiqot — amaliyot”: yangi model

Zamonaviy ichki ishlar xodimni tayyorlashda yana bir muhim jihat — ta’limni ilm-fan va amaliyotdan ajratib qo‘ymaslik. Akademiyada ilm-fan ta’lim jarayonining qo‘shimcha elementi emas, balki uni rivojlantiruvchi muhim omil sifatida qaralmoqda. Amaliyotda uchrayotgan muammolarni ilmiy jihatdan o‘rganish, ularning sabab va oqibatlarini tahlil qilish, olingan xulosalarni ta’lim mazmuniga olib kirish orqali “ta’lim — tadqiqot — amaliyot”ning uzviyligi ta’minlanmoqda. Bu esa kelajakdagi xodimni nafaqat mavjud tajribani o‘zlashtiruvchi, balki yangi vaziyatlarga ilmiy-tahliliy yondasha oladigan mutaxassis sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Akademiyada bu yondashuv o‘quv jarayonlarini raqamlashtirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, zamonaviy moddiy-texnik bazani mustahkamlash hamda nazariya va amaliyotning uzviyligini ta’minlash orqali izchil takomillashtirilmoqda. Bunda ta’lim jarayoni faqat tayyor bilimlarni berish bilan cheklanmay, kursantlarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv, amaliy muammolarni hal etish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va kasbiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilmoqda. Shu jihatdan, Akademiyada amalga oshirilayotgan yangilanishlar ta’lim sifatini oshirish bilan birga, ichki ishlar organlari uchun zamonaviy kompetensiyalarga ega, amaliyotga tayyor va xalq bilan samarali muloqot qila oladigan yangi avlod kadrlarini tayyorlashning muhim omiliga aylanmoqda. Zero, zamonaviy Akademiyaning vazifasi bilimli xodimni emas, bilimini amaliyotga aylantira oladigan professionalni tarbiyalashdan iborat.

Akademiya chegaralaridan tashqariga chiqayotgan bilim

Bugungi globallashuv sharoitida jamoat xavfsizligi va huquq-tartibotni ta’minlash masalalarini faqat bir davlat tajribasi doirasida hal etish tobora murakkablashib bormoqda. Transmilliy jinoyatchilik, kiberjinoyatlar, noqonuniy migratsiya, narkotik vositalar savdosi, raqamli tahdidlar va boshqa zamonaviy xavf-xatarlar huquqni muhofaza qiluvchi organlardan nafaqat yuqori kasbiy tayyorgarlikni, balki xalqaro tajribani o‘rganish, ilg‘or amaliyotlarni o‘zlashtirish va xavfsizlik sohasida hamkorlikning yangi mexanizmlarini shakllantirishni talab etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, IIV Akademiyasining xalqaro aloqalari oddiy diplomatik uchrashuvlar yoki tajriba almashish tadbirlari doirasidan chiqib, ta’lim, ilm-fan, amaliyot va innovatsiyalarni birlashtiruvchi strategik hamkorlik platformasiga aylanib bormoqda. Xorijiy hamkorlar bilan yo‘lga qo‘yilayotgan qo‘shma o‘quv kurslari, ilmiy-amaliy tadbirlar, professor-o‘qituvchilar va ta’lim oluvchilar almashinuvi, ilg‘or pedagogik hamda kasbiy tajribalarni o‘rganish jarayonlari Akademiyaning ta’lim salohiyatini boyitish bilan birga, milliy kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda.

Eng muhimi, bu jarayonda Akademiya faqat xorij tajribasini o‘rganuvchi emas, balki O‘zbekistonning ichki ishlar organlari uchun shakllanayotgan zamonaviy kadrlar tayyorlash tajribasini xalqaro maydonga olib chiqayotgan ilmiy-ta’limiy maskan sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

Bu yondashuvning amaliy ifodasini Akademiyaning xalqaro hamkorlik geografiyasi va mazmuni tobora kengayib borayotganida ham ko‘rish mumkin. Jumladan, Akademiyada Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Belarus va Rossiyaning turdosh oliy ta’lim muassasalari ishtirokida xalqaro davra suhbati o‘tkazilib, dual ta’lim, nazariya va amaliyot uyg‘unligi hamda ilg‘or xalqaro tajribalarni ta’lim jarayoniga joriy etish masalalari muhokama qilindi. Turkiya mutaxassislari bilan hamkorlikda esa jamoat xavfsizligi, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish, raqamlashtirish va zamonaviy boshqaruv bo‘yicha tajriba almashish, professor-o‘qituvchilar va ta’lim oluvchilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish istiqbollari belgilandi.

Hamkorlikning xalqaro miqyosda institutsionallashib borayotganini Akademiyaning Turkiy davlatlar politsiya akademiyalari platformasi — TЬRKPAPga a’zo bo‘lgani ham yaqqol ko‘rsatadi. Mazkur platforma doirasida ta’lim integratsiyasini kuchaytirish, ilg‘or tajribalarni o‘zaro almashish, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan umumiy yondashuvlarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochilmoqda.

Xalqaro hamkorlikning yana bir muhim jihati — xorijiy ekspertlarning Akademiyada yaratilgan ta’lim va amaliyot infratuzilmasiga bergan bahosidir. AQSH Federal tergov byurosi vakilining tashrifi davomida Akademiyaning axborot-resurs markazi, ixtisoslashgan mobil transport vositalari, jangovar va jismoniy tayyorgarlik majmuasi hamda Ma’naviyat va ma’rifat markazida yaratilgan sharoitlar bilan tanishildi. Tashrif doirasida dual ta’lim, boshqaruv kadrlarini tayyorlash, jinoyatchilikni ilmiy yondashuvlar asosida jilovlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Bu jarayonlarning barchasi bir haqiqatni ko‘rsatadi: bugungi Akademiya faqat xorij tajribasini o‘rganayotgan ta’lim muassasasi emas. U xalqaro tajribani milliy amaliyot bilan uyg‘unlashtirayotgan, zamonaviy xavfsizlik muammolariga ilmiy va amaliy yechimlar izlayotgan hamda yangi avlod ichki ishlar xodimini tayyorlashning xalqaro maydondagi faol ishtirokchisiga aylanmoqda.

Zero, dunyo tajribasini o‘rganish — taraqqiyotning birinchi qadami. Uni milliy sharoitga moslashtirib, amaliy natijaga aylantirish esa haqiqiy yangilanishdir.

Shunday qilib, xalqaro hamkorlik Akademiya uchun shunchaki tajriba almashish



vositasi emas, balki zamonaviy xavfsizlik chaqiriqlariga javob bera oladigan, xalqaro tajribani milliy amaliyot bilan uyg‘unlashtirgan yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashning muhim strategik resursiga aylanmoqda.

Jinoyatchilik turlanmoqda — unga qarshi kurashuvchi xodim ham o‘zgarishi kerak

Bugun jinoyatchilikning shakli va vositalari o‘zgarayotgan bir sharoitda ichki ishlar xodimining kasbiy tayyorgarligi ham yangi mazmun bilan boyib bormoqda. Kiberjinoyatchilik, raqamli firibgarlik, sun’iy intellektdan noqonuniy foydalanish kabi yangi tahdidlar huquqni muhofaza qiluvchi organlardan zamonaviy texnologiyalarni biladigan, axborotni tahlil qila oladigan va raqamli dalillar bilan ishlash ko‘nikmasiga ega mutaxassislarni talab etmoqda.

Shu maqsadda Akademiyada sun’iy intellekt, kibertahdidlar va raqamli kriminalistikaga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etilmoqda.

Xususan, kursantlar uchun kiberfiribgarlikning zamonaviy ko‘rinishlari, uni sodir etish usullari, dasturiy vositalar va kibermakonda xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha ilg‘or tajribalar o‘rgatilmoqda.

Bu esa Akademiyada “zamonaviy jinoyatchilikka — zamonaviy bilim, zamonaviy texnologiya va zamonaviy mutaxassis” tamoyili tobora chuqur qaror topayotganidan dalolat beradi. Shu sababli bugungi xodim nafaqat raqamli tahdidlarni anglaydigan, balki zamonaviy axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan qonuniy, xavfsiz va samarali foydalana oladigan mutaxassis bo‘lishi zarur.

Hayot akademiyasi — xizmat maktabi

Mustaqillikning 35 yilligi — bu shunchaki tarixiy sana emas. Bu mamlakatimiz bosib o‘tgan yo‘l, erishilgan natijalar va kelajak oldidagi yangi mas’uliyatni anglash uchun muhim fursatdir.

IIV Akademiyasida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar ana shu taraqqiyot jarayonining bir qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu yerda ta’lim va amaliyot uyg‘unlashmoqda, xalqaro tajriba milliy amaliyot bilan boyitilmoqda, ilm-fan va raqamli texnologiyalar o‘quv jarayoniga kirib kelmoqda, kursantlar uchun zamonaviy sharoitlar yaratilmoqda.

Eng muhimi, kadrga munosabat o‘zgarmoqda. Bugungi Akademiya qonunni biladigan xodimni emas, uning mazmun-mohiyatini anglaydigan; xizmat vazifasini bajaradigan emas, fuqaro muammosini eshitadigan; vaziyatga shunchaki javob beradigan emas, uni tahlil qilib, to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan; kasbiy bilimga ega bo‘lgan emas, insoniy fazilatlar, kommunikativ va psixologik kompetensiyalarni o‘zida mujassam etgan professionalni tarbiyalashga intilmoqda.

Shu ma’noda, “Hayot akademiyasi” nomining o‘zi chuqur ramziy mazmunga ega. Chunki bu dargohda faqat fanlar o‘qitilmaydi — insonlar bilan ishlash, murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tanlash, Vatan va xalq oldidagi mas’uliyatni his etish, tinchlik va osoyishtalikni asrashning hayotiy saboqlari beriladi.

Zero, xalq xavfsizligini ta’minlashning kuchi, avvalo, zamonaviy bilimga, yuksak ma’naviyatga, mustahkam irodaga va xalq ishonchini oqlashga qodir kadrlarga bog‘liq.

Mustaqillikning yangi o‘n yilliklari sari dadil qadam tashlar ekanmiz, IIV Akademiyasi ham ana shu ulug‘ maqsadga xizmat qiladigan bilim, ma’rifat, fidoyilik va xalqparvarlik maskani sifatida o‘z taraqqiyot yo‘lini davom ettirmoqda.

Sardorbek ABDULLAYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Xizmat psixologiyasi va kasbiy madaniyati kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari
Otabek KARIMJANOV,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Xizmat psixologiyasi va kasbiy madaniyati kafedrasi dotsenti